

**SOVET MILLIY SIYOSATI: KOREYSLAR MISOLIDA ETNIK
REPRESSIYALAR**

Omonov Azizbek Abdug‘opporovich

Nizomiy nomidagi milliy pedagogika universiteti

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Sovet Ittifoqining milliy siyosati doirasida amalga oshirilgan etnik repressiyalar, xususan, koreys diasporasining taqdiri tahlil qilinadi. Asarda XX asr 30–40-yillarida koreylarning Uzoq Sharqdan Markaziy Osiyoga, jumladan O‘zbekistonga majburiy ko‘chirilishining siyosiy va ijtimoiy sabablari, deportatsiya jarayoni va uning og‘ir oqibatlari ilmiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida yoritiladi. Maqolada sovet totalitar tizimining etnik guruhlarga nisbatan yuritgan siyosatining insonparvarlik va huquq normalariga zid jihatlari, deportatsiya natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolar, koreylarning yangi muhitga moslashuvi, identifikasiya inqirozi va milliy xotira masalalari atroflicha o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Sovet milliy siyosati, etnik repressiyalar, koreyslar, deportatsiya, Uzoq Sharq, O‘zbekiston, totalitarizm, milliy identifikasiya, ijtimoiy integratsiya, diaspora, inson huquqlari, milliy xotira, siyosiy tarix.

XX asrning birinchi yarmida Sovet Ittifoqi tomonidan olib borilgan etnik siyosat, ayniqsa Stalinizm davrida, davlat xavfsizligi, iqtisodiy manfaatlar va siyosiy mafkura bilan bog‘liq chuqur omillar ta’sirida shakllandi. Bu siyosatning eng keskin va fojeali ko‘rinishlaridan biri — ommaviy deportatsiyalar edi. Mazkur deportatsiyalar sud qarorisiz, ma’muriy buyruqlar asosida va milliy mansublik belgisi bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lib, millionlab insonlar o‘z yashash joylaridan ajraldi, begona iqlim va madaniyat muhitida yashashga majbur bo‘ldi. Uzoq Sharqda zinch yashagan koreyslar Sovet etnik deportatsiyalari tarixida birinchi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

nishonga aylangan xalq bo‘ldi.

Asosan, deportatsiyalar Ikkinchiji jahon urushi yillarida amalga oshirilgan. Ayrim xalqlar vakillari fashistlarga yordam berishi mumkin bo‘lgan potensial xatar sifatida baholangan bo‘lsa, boshqalari dushmanga ko‘maklashganlikda ayblangan¹.

1937-yilda boshlangan koreyslarning Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekiston va Qozog‘istonga ommaviy ko‘chirilishi rasmiy ravishda Yaponiyaga qarshi joususlik faoliyatining oldini olish bilan izohlangan bo‘lsa-da, aslida bu siyosat ko‘plab siyosiy, harbiy, iqtisodiy va demografik omillar bilan uzviy bog‘liq edi. Deportatsiya jarayoni yuqori darajada markazlashtirilgan, qat’iy rejalahtirilgan va sir tutilgan harakat sifatida amalga oshirildi. Bu siyosat Sovet tuzumining repressiv mexanizmlaridan biri bo‘lib, koreys xalqining ijtimoiy, madaniy va etnik hayotiga tubdan ta’sir ko‘rsatdi. XX asrning 30-yillari o‘rtalarida Sovet Ittifoqida yuz bergan ommaviy deportatsiyalar siyosati ko‘plab xalqlarning taqdiriga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Uzoq Sharqda zinch yashagan koreys millati vakillarining 1937-yilda Markaziy Osiyo respublikalariga, xususan O‘zbekiston va Qozog‘istonga ko‘chirilishi ham ana shu siyosatning bir qismi edi. Rasmiy ravishda bu harakat Yaponiyaga qarshi joususlik faoliyatining oldini olish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aslida bu jarayon murakkab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq edi. Koreyslarning O‘zbekistonga ko‘chirilishi nafaqat etnik tarix, balki mintaqaviy taraqqiyot kontekstida ham chuqur iz qoldirdi.

Rus-Yapon urushi davrida Vladivostokda Yaponianing keng qamrovli joususlik tarmog‘i faoliyat yuritgan. Uning agentlari o‘zlarini koreys hunarmandlari, suv tashuvchilar, xizmatkorlar va boshqa kasb egalari sifatida ko‘rsatib, muvaffaqiyatli yashirinib yurishgan, shuningdek, mahalliy koreyslarni ham shu maqsadda yollashgan. Primoryeda koreyslar aholining taxminan uchdan bir qismini tashkil qilganini inobatga olgan holda, 1920-yillardan boshlab ularni Yaponiya tomonidan bosib olingan Koreya bilan chegaradosh hududlardan ko‘chirish chorralari ishlab chiqila boshlandi.

¹ <https://www.pnp.ru/social/deportaciya-byla-priznana-prestupleniem.html>
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Dastlab, ko‘chirilgan koreyslarning bir qismini Xabarovsk va Amur viloyatlarida joylashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu hududlarga taxminan 1,5 ming koreys ko‘chirilgan. Biroq, oradan biroz vaqt o‘tib, muammoni hal qilishning boshqa yo‘li taklif etildi. O‘sha paytda Qozog‘iston va O‘zbekistonda guruch yetishtirishni rivojlantirish rejalashtirilgan edi, ammo mahalliy dehqonlar bu borada hech qanday tajribaga ega emas edi. Shu sababli, ikki ittifoqdosh respublika rahbarlari Sovet Ittifoqi hukumatidan bu ish bo‘yicha “mutaxassis” bo‘lgan koreys ko‘ngillilarini yuborishni so‘rashdi. 1929-yilda 220 nafar koreys ushbu taklifni qabul qilib, Qozog‘istonga ko‘chib o‘tdi. Keyinchalik ushbu tajriba O‘zbekistonda ham qo‘llanildi. 1937-yilda koreyslar deportatsiya qilinishidan oldin, faqat Toshkent viloyatining o‘zida o‘ttizta koreys kolxozi mavjud edi².

Sovet Ittifoqi davrida koreyslarning Uzoq Sharqdan majburiy ko‘chirilishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik choralar bilan bog‘liq emas, balki butunlay yangi repressiv siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan. Deportatsiyalar, ayniqsa Stalinizm davrida, davlat tomonidan qo‘llanilgan ommaviy jazolash vositasi sifatida shakllandı. Ular hech qanday sud-huquqiy asosga ega bo‘lmagan, mutlaqo ma’muriy yo‘l bilan amalga oshirilgan, butun etnik yoki ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan, shuningdek, ularni o‘zlarining tarixiy, madaniy va tabiiy yashash muhitidan butunlay begona, ko‘pincha og‘ir iqlim sharoitiga ega hududlarga majburan ko‘chirishni nazarda tutgan³.

Tadqiqotchi Pavel Polyan ta’kidlaganidek, SSSRda to‘liq miqyosdagi majburiy deportatsiyaga 10 ta xalq duch kelgan: koreyslar, nemislar, fin-ingerlar, qoraqalpoqlar, kalmuklar, chechenlar, ingushlar, balkarlar, qrim tatarlar va mesxet turklari⁴. Ularning ichida yettita xalq o‘z milliy avtonomiyalardan ham mahrum etilgan. Koreyslar ushbu siyosatning ilk nishoniga aylangan bo‘lsa-da, keyinchalik

² Торопов А.А. Корейская эмиграция на дальнем востоке России: вторая половина XIX в. - 1937 г. In: Revue des etudes slaves, tome 71, fascicule 1, 1999. P-128

³ “Записка Комиссии Политбюро ЦК КПСС по дополнительному изучению материалов, связанных с репрессиями, имевшими место в период 30-40-х — начала 50-х гг. kamunikat.fontel.net. // Вестник Архива Президента Российской Федерации. — 1995. — № 1. — С. 123—130; Хрестоматия по отечественной истории (1946—1995): Учебное пособие / Под ред. А. Ф. Киселёва, Э. М. Щагина. — М.: ВЛАДОС, 1996. — С. 310—323.

⁴ Полян П. М. Депортации и этничность // Сталинские депортации. 1928—1953. — М.: МФД, Материк, 2005. — С. 5. — 904 с. — (Россия. XX век. Документы). — ISBN 5-85646-143-6.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko‘plab boshqa etnik, diniy yoki ijtimoiy guruhlar ham shunga o‘xshash taqdirni boshdan kechirishgan. Ularga kazaklar, polyaklar, yahudiylar, xitoylar, armanlar, tatarlar, kurdlar, yunonlar, italyanlar, turklar, tojiklar, va boshqa ko‘plab xalqlar kiradi⁵.

Koreyslarning Uzoq Sharqdan deportatsiyasi, umuman olganda, SSSRdagi keng ko‘lamli etnik repressiyalar tizimining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bunday deportatsiyalar odatiy sud-tartib doirasida amalga oshirilmagan — ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri partiya va hukumatning yuqori darajadagi qarorlari asosida, O‘G‘PU—NKVD tashabbusi bilan olib borilgan. Bu esa deportatsiyani klassik jazolash institutlaridan – xususan, isloh-mehnat lagerlari va koloniylar tizimidan tubdan farqlaydi. Deportatsiyalar – odatda ommaviy, jamoaviy va sudsiz amalga oshirilgan bo‘lib, shaxsiy jinoyat emas, balki milliy yoki ijtimoiy guruhga mansublik asosida jazo chorasi sifatida tatbiq etilgan.

SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi maxsus ko‘chirishlar bo‘limining 1944-yil 5-sentabrdagi hisobotiga ko‘ra, Ikkinchiji jahon urushi davrida quyidagi xalqlar to‘liq deportatsiya qilingan: nemislar, qoraçoylar, chechenlar, ingushlar, balkarlar, kalmuklar va qrim tatarlar. Umumiy hisobda bu ko‘chirilganlar soni 1 million 514 ming kishini tashkil etgan.

1945-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, SSSRdagi maxsus posyolkalarda 2 230 500 nafar fuqaro istiqomat qilgan.

1944–1945-yillarda ushbu maxsus ko‘chirilganlar SSSRning 6 ta ittifoqdosh, 8 ta avtonom respublikasi va 27 ta viloyatiga joylashtirilgan. 1946-yilga kelib, ularning eng ko‘pi quyidagi hududlarda yashagan:

Qozog‘iston – mamlakat bo‘yicha deportatsiya qilinganlarning uchdan bir qismi,

O‘zbekiston – 81 mingdan ortiq kishi,

Qiziloy (Krasnoyarsk) o‘lkasi – 125 mingdan ortiq,

Qirg‘iziston – 112 mingdan ortiq,

⁵ Полян П. Не по своей воле...: История и география принудительных миграций в СССР. — М.: О. Г. И. — Мемориал, 2001. — С. 46. — 327 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Kemerovo viloyati – 97 mingdan ortiq,

Tomsk viloyati – 92 mingdan ortiq,

Sverdlovsk viloyati – 89 mingdan ortiq,

Altay o‘lkasi – 85 mingdan ortiq,

Molotov viloyati – 84 mingdan ortiq⁶.

Keyinchalik bu siyosat xalqaro va milliy darajada keskin tanqid ostiga olingan. 1991-yil 26-aprelda RSFSR Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan “Repressiyaga uchragan xalqlarni reabilitatsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun⁷ asosida koreyslar va boshqa xalqlar rasmiy ravishda repressiya qurboni deb e’tirof etildi. Qonunga ko‘ra, bunday siyosat “milliy yoki boshqa alomatlar asosida amalga oshirilgan tuhmat, zo‘ravonlik, majburiy ko‘chirish, avtonomiya va davlat tuzilmalarining tugatilishi, hududiy chegaralarning o‘zgartirilishi va terror sharoitlarida yashashga majbur qilish” kabi harakatlar bilan kechgan.

XXI asr boshlarida esa ba’zi tarixchilar, jumladan Nikolay Bugay, “deportatsiya” atamasining siyosiy og‘irligini tanqid qilib, uni “majburiy ko‘chirish” (принудительное переселение) termini bilan almashtirishni taklif qilgan. Ularning fikricha, SSSR ichidagi ko‘chirishlar xalqaro huquqda qo‘llaniladigan "deportatsiya" tushunchasidan farqlanishi kerak. Biroq, tarixiy va insoniy nuqtai nazardan bu harakatlar ommaviy huquqbazarliklar va inson huquqlarining qo‘pol buzilishi sifatida baholanishda davom etmoqda⁸.

1937-yil 7-iyulda Yaponianing Xitoya bostirib kirishi va shu davrda Koreyaning Yapon imperiyasi tarkibida bo‘lishi Sovet hukumatining Uzoq Sharqda yashovchi koreyslarga nisbatan siyosatini keskin o‘zgartirdi. Yaponianing aggressiv tashqi siyosati va mintaqada kuchayib borayotgan harbiy faolligi Sovet rahbariyatida xavotir uyg‘otdi. Aynan shunday xalqaro siyosiy sharoitda, Sovet Ittifoqi koreys aholisining potensial xavf manbai sifatida

⁶ База данных «Память о беспарвии» [Электронный ресурс] // <http://www.sakharov-center.ru>

⁷ Закон «О реабилитации репрессированных народов» (1991). Справка. РИА Новости (26 апреля 2011). — 26 апреля 2011 года исполняется 20 лет со дня принятия в РСФСР Закона «О реабилитации репрессированных народов».

⁸ Бугай Н. Ф. Защита состоялась, проблемы остаются... // Приволжский научный вестник. — 2014. — № 7 (35). — С. 123

baholanishi va ularni davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan boshqa hududlarga ko‘chirish zaruratinini ilgari surdi.

Bugungi tarixiy baholashlar deportatsiyani insoniyatga qarshi jinoyat sifatida ko‘radi. Koreys xalqi boshdan kechirgan bu fojiali tajriba, faqatgina ularning emas, balki boshqa ko‘plab etnik guruhlarning ham Sovet davridagi taqdiriga o‘xhash bo‘lib, totalitar tuzumlar siyosatining qanday fojialarga olib kelishini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. <https://www.pnp.ru/social/deportaciya-byla-priznana-prestupleniem.html>
2. Торопов А.А. Корейская эмиграция на дальнем востоке России: вторая половина XIX в. - 1937 г. In: Revue des etudes slaves, tome 71, fascicule 1, 1999. P-128
3. “Записка Комиссии Политбюро ЦК КПСС по дополнительному изучению материалов, связанных с репрессиями, имевшими место в период 30-40-х — начала 50-х гг. kamunikat.fontel.net. // Вестник Архива Президента Российской Федерации. — 1995. — № 1. — С. 123—130; Хрестоматия по отечественной истории (1946—1995): Учебное пособие / Под ред. А. Ф. Киселёва, Э. М. Щагина. — М.: ВЛАДОС, 1996. — С. 310—323.
4. Полян П. М. Депортации и этничность // Сталинские депортации. 1928—1953. — М.: МФД, Материк, 2005. — С. 5. — 904 с. — (Россия. XX век. Документы). — ISBN 5-85646-143-6.
5. Полян П. Не по своей воле...: История и география принудительных миграций в СССР. — М.: О. Г. И. — Мемориал, 2001. — С. 46. — 327 с.
6. База данных «Память о беспарии» [Электронный ресурс] // <http://www.sakharov-center.ru>
7. Закон «О реабилитации репрессированных народов» (1991). Справка. РИА Новости (26 апреля 2011). — 26 апреля 2011 года исполняется 20 лет со дня принятия в РСФСР Закона «О реабилитации репрессированных народов».

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

8. Бугай Н. Ф. Защита состоялась, проблемы остаются... // Приволжский научный вестник. — 2014. — № 7 (35). — С. 123